

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995–yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, B.Q.Qurbonova	
Talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish	7
G.G'.G'affarova	
Raqamli jamiyatning intellektual madaniyati: falsafiy tahlil.....	13
K.D.Yarashev	
Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligidagi talabalarda boshqaruv kompetentligining tavsifi.....	17
A.A.Rayimov	
O'quvchilarda akkulturatativ ko'nikmalarni rivojlantirishda madaniyatlararo muloqotning ijtimoiy-pedagogik zarurati	21
O.A.Ashurova	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning metodik ta'minoti	25
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	30
S.S.Ulkanov	
Transport vositalari muhandisligi yo'nalishi talabalarining bilim olishlarida zamonaviy o'quv-didaktik vositalar asosida o'qitishning afzalliklari	35
T.M.Burxanov	
O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari akademiyasi kursantlarining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va diniy qarashlarining statistik tahlili	40
U.R.Radjapov	
Maktablarda yengil atletika musobaqalarini o'tkazishning oddiy qoidalari.....	44
Sh.A.Mamajonov	
Ekologik tarbiyalanganlik-jamiyat va uning taraqqiyoti uchun muhim omildir	48
F.K.Yusupova	
Talabalarining ijodkorlik faoliyatlarini rivojlanishida texnik ijodkorlikning o'rni	53
O.O.Qodirov	
O'quvchilarda kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishning o'ziga xosligi va zaruriyati	58
M.M.Mamatkodiroy	
Maktab ta'limida raqamli texnologiyadan foydalangan holda o'qitish usullarini takomillashtirish	63

IQTISODIYOT

X.X.Bozarov	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida tarmog'i bo'yicha ixtisoslashuv jarayonlarini takomillashtirish.....	70

FALSAFA

I.A.Suvanov	
Globalashuv sharoitida xavfsizlik va barqarorlikka rahna soluvchi mafkuraviy tahdidlar	76
A.N.Meliboyev	
Kambag'allikka qarshi kurash strategiyasi orqali yangi O'zbekistonda farovon jamiyat qurish istiqbollari	83
G'.Z.Abduraxmonov	
G'oyaviy birlashuv tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari.....	88
S.S.Jabborova	
O'zbekistonda jamiyatning ma'naviy salohiyati va uning ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashdagi roli	93

**O'QUVCHILARDA AKKULTURATIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA
MADANIYATLARARO MULOQOTNING IJTIMOY-PEDAGOGIK ZARURATI**

**СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ
КОММУНИКАЦИИ В РАЗВИТИИ АККУЛЬТУРНЫХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ**

**SOCIO-PEDAGOGICAL NEED OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN THE
DEVELOPMENT OF ACCULTURAL SKILLS IN STUDENTS**

Rayimov Abdulxamid Abdulxakimovich¹

¹Rayimov Abdulxamid Abdulxakimovich

– Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologilari universiteti Farg'ona filiali erkin tadqiqotchisi.

Annotatsiya

Mazkur maqolada madaniylashuv jarayonlarini o'quvchilarga tushuntirish, o'rgatish va ularda akkulturationsion dunyoqarashni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari bilan bog'liq masalalar tadqiq etilgan bo'lib, "madaniylashuv"ning shakllanishi, rivojlanishiga oid zamonaviy konsepsiyalar, nazariyalar, madaniy munosabatlar va akkulturationsion munosabatlar mazmuni, farqli jihatlari va dialektik aloqadorlik masalalari, bu borada xorijiy va milliy doiradagi izlanishlar ilmiy o'rganilgan. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda bu maqolada ta'lim jarayonida madaniy munosabatlarni samimiyligini singdirish va o'quvchilarda akkulturatativ ko'nikmalarni shakllantirish masalalarini tadqiq etish maqsad qilingan. Mazkur maqsaddan kelib chiqqan holda akkulturationsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, lug'atlarda ta'riflanishi tahlil etish, akkulturatativ ko'nikmalarni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini yaratish zaruratini tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Аннотация

В данной статье исследуются вопросы, связанные с объяснением и обучением студентов процессам аккультурации, а также теоретико-методологические основы формирования у них аккультурационного мировоззрения. В связи с этим научно изучены зарубежные и отечественные исследования. Исходя из этой цели, данная статья призвана изучить вопросы воспитания искренности культурных отношений в образовательном процессе и формирования аккультурационных умений у студентов. Исходя из этой цели целесообразно проанализировать сущность понятия аккультурации, его определение в словарях, исследовать необходимость создания социально-педагогических механизмов формирования аккультурационных навыков.

Abstract

In this article, the issues related to explaining and teaching the processes of acculturation to students and the theoretical methodological foundations of the formation of an acculturation worldview in them are researched. In this regard, foreign and national researches have been scientifically studied. Based on this goal, this article aims to study the issues of inculcating the sincerity of cultural relations in the educational process and forming acculturative skills in students. Based on this goal, it is appropriate to analyze the essence of the concept of acculturation, its definition in dictionaries, and to research the need to create socio-pedagogical mechanisms for the formation of acculturative skills.

Kalit so'zlar: madaniyat, axloq, akkulturatativ ko'nikma, faollik, ijtimoiy faollik, jamiyat.

Ключевые слова: культура, этика, аккультурационные навыки, деятельность, социальная активность, общество.

Key words: culture, ethics, acculturative skills, activity, social activity, society.

KIRISH

Ijodiy rivojlanish, barcha taraqqiyot kabi, ikki ko'rinishdagi elementni qamrab oladi: reproduktiv (mavjud narsani qaytadan tiklash) ijodiy (ilgariga qarab intilish imkonini beruvchi yangilik). Ijodiy harakat bir necha bosqichlarga: muammoning yuzaga kelishi, hal qilishga tayyorgarlik, g'oyaning paydo bo'lishi, va nihoyat, uni mujassamlashtirishga bo'linadi. Ijodiy hamkorlik bo'lsa, yangicha yondashuvlarga asoslangan birgalikdagi faoliyat bo'lib, ma'lum bir ishni rejadagidek bajarish uchun jamoa bo'lib ishlashni anglatadi.

Ijodiy hamkorlik - ikki va undan ortiq, ijodkorning birgalikdagi ijodiy mehnati. Ijtimoiy hayotga munosabati, hayotiy tajribasi, maslak va matlabi, e'tiqodi, tili, estetik g'oyalari, ijodiy uslubi yoki yo'nalishi bir biriga yaqin ijodkorlar muayyan ilmiy-ijodiy faoliyatni birgalikda olib borishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Akkulturatativ ko'nikmalarning rivojlanishi madaniy bag'rikenglik bilan birga ijodkorlik va ijodiy hamkorlik ko'nikmalariga ham bog'liq bo'ladi. «Ijodkorlik» tushunchasi ko'pgina fanlarning tahlilii asosi sanaladi. Uni aniqlash tafovuti ushbu qobiliyatning serqirra ekanligini aks ettiradi. «Ijodkorlik

– ijtimoiy ahamiyatga ega yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratuvchi inson faoliyatidir»[1]. Boshqa bir olimning ta'rifiga ko'ra, «ijodkorlik – bu qarama-qarshiliklarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan inson faoliyati ko'rinishlaridan biri bo'lib, uning uchun obyektiv (ijtimoiy, axloqiy) va subyektiv shaxsiy shart-sharoitlar (bilim, ko'nikma, ijodiy qobiliyat) kabilar zarur, uning natijasi yangilik va taraqqiyparvarlik kasb etadi»[2]. Shuningdek, «ijodkorlik – bu faoliyat bo'lib, yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarning yuzaga kelishi uning natijasi hisoblanadi»[3]. Maxsus adabiyotlarda ijodkorlik tushunchasining u yoki bu talqinlari mavjud, ijodiy jarayonning mohiyati, tuzilishi, insonning ijodiy qobiliyatlarining shakllanishi borasida turli fikrlar keltiriladi.

NATIJALAR

Aql va kreativlikning o'zaro bog'liqligi bo'yicha tadqiqotchilarning quyidagicha uchta yondashuvi mavjud: Birinchi yondashuvda bunday ijodiy qobiliyatlar mavjud emas deb taxmin qilinadi va intellekt shaxsning ijodiy faoliyati uchun zarur, ammo yetarli bo'lmagan shart sifatida ishlaydi. Ijodiy xulq-atvorni aniqlashda asosiy rol motivatsiya, qadriyatlar, shaxsiy xususiyatlar bilan o'ynaydi. Shunday qilib, D.Bogoyavlenskaya iqtidorni tushunishga quyidagicha yondashadi va uni «vaziyatdan tashqari aqliy faoliyatning davomi» deb tushungan holda «intellektual faoliyat» tushunchasini kiritadi. Umumiy aqliy qobiliyatlar intellektual faoliyatning asosini tashkil etadi, kognitiv qiziqishning kengligini belgilaydi. Ikkinchi yondashuvda aqlning yuqori darajasi ijodkorlikning yuqori darajasini anglatadi va aksincha. Aqliy faoliyatning o'ziga xos shakli sifatida ijodiy jarayon mavjud emas. Ushbu nuqtai nazar ushbu muammoni ishlab chiqishda ishtirok etgan ko'plab olimlar uchun eng kam ishonchli ko'rinadi. Uchinchi yondashuv esa – bu kreativlik g'oyasi (ijodiy qobiliyat) aqldan mustaqil omil sifatida tahlil etilgan[4]. Demak, talablarning ijodkorligi ularning aqliy salohiyati va darajasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning intellektual o'sishi bilan parallel rivojlanib boradi. Shu bois o'quvchilarda ijodiy faoliyat, izlanish va ijodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun ham avvalo ularning intellektual rivojlanishi va dunyoqarashini o'stirishdan boshlanadi.

Umumiy o'rta ta'limda tarix fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarni akkulturatativ ko'nikmalarni rivojlantirishda tolerantlikni ham shakllantirish muhim vazifalardan biri bo'lib, tolerantlik ruhida tarbiyalashda quyidagi aniq vazifalarning ijobiy hal etilishi maqsadga muvofiqdir:

1. O'quvchilarda "tolerantlik" tushunchasining mazmun-mohiyati, tolerantlik negizida aks etuvchi sifatlar, intolerantlik, uning elementlari to'g'risidagi nazariy bilimlarni shakllantirish va izchil rivojlantirib borish.

2. O'spirinlarda tinchliksevarlik, boshqalarni qabul qilish va tushunish, ular bilan birgalikda faoliyat ko'rsatish (turli ko'rinishdagi zo'ravonlik va agressiyaga qarshi salbiy munosabat, o'ziga va o'zgalarga, shuningdek, ularning madaniyatiga nisbatan hurmat va ehtirom, millatlararo va turli diniy e'tiqodlar o'rtasida o'zaro birlikka asoslangan harakatlarni tashkil etish layoqati, mansubligidan qat'iy nazar ijtimoiy guruhlar vakillari bilan o'zaro harakat qilish va tolerant muloqotda bo'lish, tolerantlik chegaralarini aniqlay olish) ko'nikmalarini shakllantirish hamda muntazam ravishda rivojlantirib borish.

3. Jamiyat va ta'lim tizimida tolerantlik muhiti (jamiyatda terrorizm, ekstremizm va agressiyaning oldini olish yo'lida chora-tadbirlarni belgilash (profilaktika), kattalar va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning insonparvar va demokratik g'oyalarga asoslanishi hamda shaxsda tolerantlik xislatini tarbiyalash borasidagi yetakchi pedagogik g'oyalarni ta'lim tizimini isloh qilish mazmunida aks etishiga erishish, bo'lajak o'qituvchilarni o'smirlar va o'spirinlarda tolerantlik xislatini tarbiyalash tizimini isloh qilish)ni yaratish.

Jamiyat demokratlashuvi sharoitida madaniy munosabatlarning takomillashuvi – siyosat, ong, til va madaniyatni o'zida ifodalaydigan madaniylashuv jarayonlarining ham rivojlanishi demakdir. Madaniy munosabatlarda nafaqat ijtimoiy hayotning iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy va boshqa sohalarida ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan islohotlar, balki mavjud qiyinchiliklari, ziddiyatlari ham o'z aksini topishi tabiiydir.

MUHOKAMA

Madaniy munosabatlar madaniy birlik subyektlarining ichki aloqalarida namoyon bo'luvchi jamiyatdagi munosabatlar shakli bo'lib, bu yo'nalishda asosiy urg'u muayyan madaniy hamkorlikka erishishga qaratilgan bo'ladi. Madaniy munosabatlar tizimida ijtimoiy, madaniy, siyosiy, etnik, huquqiy aspektlar mavjud bo'ladi. Shuningdek, madaniy munosabatlar turli darajada – madaniyatlararo, muayyan millatlar ichidagi va millatlararo ko'rinishda (ya'ni, ko'p millatli davlat

PEDAGOGIKA

doirasidagi milliy birliklar o'rtasidagi munosabat ko'rinishida), jamiyat va shaxslararo ko'rinishda mavjud bo'ladi va rivojlanadi[5].

Madaniy munosabatlar rivojlanishida ikkita o'zaro kesishadigan tamoyil ajratiladi:

- inson hayoti barcha tomonlarining iqtisodiy integratsiyasi va baynalmillashuvi tamoyili;
- madaniy birlikning o'z taqdirini o'zi belgilash, o'zligini namoyon etish, o'zini o'zi boshqarishga intilishi tamoyili.

Ushbu tamoyillar ko'pincha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy sohalaridagi asoslarga ega bo'lgan obyektiv va subyektiv omillar bilan bog'liq to'qnashuv va ziddiyatlar holida bo'ladi.

Bugungi kunda jamiyatshunoslik ilmda madaniy munosabatlarni tarixi, shakllanish bosqichlari va bugungi ahvoli to'g'risida yondashuvlar juda salmoqli va o'ziga xos xususiyatlarni ko'rsatib beradi. Jamiyatning madaniy tafovutlari va millatlararo muloqot mohiyatini ifodalovchi konsepsiyalarni bir qancha nomlan bilan atashadi. Misol uchun, insoniyat taraqqiyotida madaniy o'zgarishlarning "erituvchi qozon" konsepsiyasi (AQSh), "etnik miksatsiya" (Lotin Amerika), "assimilyatsiya" (tabiiy va zo'raonlik), "akkulturatsiya", "multikulturalizm" (Evropa Ittifoqi), "millatchilik", "shovinizm", "diskriminatsiya", "segregatsiya", "aparteid", "genotsid", "etnotsid", "xolokost", "separatizm", "irredentizm" shakllari namoyon bo'ladi[6]. Shunday ekan, mazkur jarayonlarning mohiyatini o'rganish, jamiyatda ijtimoiy dunyoqarashni shakllantirish dolzarb vazifadir.

Bugungi ta'limiy islohotlar jarayonida o'quvchilarda akkulturatativ ko'nikmalarni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruratini quyidagicha asoslash mumkin:

Birinchidan, jamiyatimizning yangi rivojlanish bosqichida ko'pmillatli muhitda va ko'ptilli ta'lim sharoitida tolerant va samimiy madaniy muloqot muhitini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Maktab ta'limida akkulturatativ ko'nikmalarni shakllantirish orqali ko'pmillatli yurtimizda bag'rikeng madaniy muloqot muhitini mustahkamlash mumkin bo'ladi.

Ikkinchidan, maktab ta'limida o'quvchilarning tarixiy dunyoqarashini o'stirish, tarixni obyektiv talqin qilish tafakkurini rivojlantirish hamda milliy-madaniy munosabatlarni anglashlariga turtki berish bilan birga bir madaniy guruhning boshqa bir madaniy guruhga munosabatida toqatlilikni shakllanishi bugungi tinchlik va xotirjamlikni mustahkamlashning muhim omili ekanligini singdirish vazifalari ham akkulturatativ ko'nikmalarni shakllantirish zaruratini asoslaydi. Chunki bugun maktab ta'limi bolaning fundamental bilimlarini va hayotiy pozitsiyasi, ma'rifiy dunyoqarashini shakllantiruvchilik mas'uliyatini o'z zimmasiga olmoqda.

Uchinchidan, o'quvchilarda har bir madaniy qatlamning qadriyatlarini, urf-odatlaridan tortib tili, dini, irqi va boshqa xususiyatlarini qadrlash hissini shakllantirish, jamiyatning madaniy hayotning totuv muhitini vorisiylik asosida kelajak avlod qoldirishga erishish va bu yo'lda sifatli ta'lim berish, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasini o'zgartirish asosida yangicha yondashuv asosida ta'lim berish vazifalari ustuvorlik kasb etmoqda.

To'rtinchidan, o'quvchilarda akkulturatativ ko'nikmalarni shakllantirish pedagogika fanlari oldidagi dolzarb muammo sifatida gavdalanmoqda. Chunki akkulturatativ ko'nikmalar shakllantirish bugungi ta'lim tizimi uchun yangilik hisoblanadi. Maktab ta'limida, umuman pedagogika fanlarida akkulturatativ jarayonini yoshlarga o'rgatish va singdirish to'g'risida ma'lumotlar mavjud emas. Rivojlangan davlatlar pedagogikasida maktab yoshidanoq bolalarda akkulturatativ ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki bolaning shaxs sifatida shakllanishida va ijtimoiy munosabatlarga erkin kirishishida akkulturatativ dunyoqarashni rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida qaraladi.

Beshinchidan, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari asosida "Markaziy Osiyo – yagona o'tmish, umumiy kelajak" shiori ostida madaniy-gumanitar almashuv platformasining yaratilishiga doir ishlarni amalga oshirishda[7], shuningdek, ilm-fan, madaniyat va san'at sohalarida erishgan salmoqli yutuqlari uchun Markaziy Osiyo mukofotini ta'sis etish ishlarini yanada kengaytirish, ta'lim muhitida ham yagona o'tmish va umumiy kelajak g'oyasi asosida o'quvchilarni tarbiyalash, akkulturatativlik ko'nikmalarini o'stirish vazifalari zaruratiga aylanmoqda.

Akkulturatativ jarayonida turli madaniyat vakillari o'zaro hamkorlikda, totuvlik muhitida birgalikda yashaydilar va muloqot qiladilar. Bunda o'zaro muloqot qilayotgan madaniy birliklar bir-birining shaxsiyati, xulq-atvori, e'tiqodi va qadriyatlarini o'rganadilar va o'zining manashunday madaniy xususiyatidagi ijobiy va salbiy jihatlari bilan solishtirib boradilar. Shunday ekan maktab ta'limida ham turli madaniy guruh vakillaridan iborat o'quvchilarning o'zaro muloqotini

shakllantirish, turli e'tiqod, til va qadriyatlar muloqoti asosida madaniy sintezlanuv jarayonini ham amaliy, ham nazariy asoslarini mustahkamlash talab etilmoqda.

Bugungi kunda akkulturationsion jarayonlarning eng keng tarqalgan shakli migratsiya bilan bog'liq jarayonlardir. Migratsion jarayonlar bugungi ajralmas ijtimoiy o'zgarishlaridan bir bo'lib qolmoqda. Mazkur voqelik so'ngi asrda o'zining yuqori nuqtasiga chiqdi. Bunga imkoniyatlarning oshishi bilan birga mintaqalardagi ijtimoiy beqarorliklar asosiy ta'sir ko'rsatmoqda.

XULOSA

Xulosa qilganda, maktab ta'limida o'quvchilarga yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish va insoniy sifatlarga ega, vijdonli va diyonatli kadrlarni tarbiyalash muhim ijtimoiy zarurat bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga akkulturatativ ko'nikmalarni shakllantirish va bu orqali ijtimoiy munosabatlarga faol kirisha oladigan, tolerant munosabatlarni ko'rsatib bera oladigan yoshlarni tarbiyalash ham ustuvor vazifaga aylanmoqda. Maktab ta'limida o'quvchilarda madaniy munosabatlarni hurmat qiladigan, o'zgalarning madaniy o'ziga xosligini qadrlay biladigan o'quvchilarni tarbiyalash orqali ushbu vazifalarni amalga oshirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Большой энциклопедический словарь — 2-е изд. — Москва: Большая Российская энциклопедия; СПб.: «Норинт», 1997, — С.1236.
2. Богоявленская, Д.Б. Психология творческих способностей :учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Д.Б. Богоявленская. — Москва:Изд. центр Академия, 2002. —С.53.
3. Философский словарь под ред. И.Т.Фролова. — 6-е изд., перераб. и доп. — Москва: Политиздат, 1991. —С.457.
4. Интеллект и креативность как индикаторы одаренности. Электронный ресурс: <http://www.psyhodic.ru/arc.php?page=4925>. Дата обращения. 27.07.2019.
5. Моисеев Н.Н. Цивилизация на переломе. Пути России. М., 1996; Социология межнациональных отношений. М., 1996; Россия: социальная ситуация и межнациональные отношения в регионах. М., 1996 ва б.
6. Политология: Энциклопедический словарь / Общ. ред. и сост. Ю.И. Аверьянов. —Москва. 1993
7. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. —Тошкент.: Ўзбекистон. 2020. —Б. 272.
8. Karimov, U., Karimova, G., & Makhamadaliyev, L. (2022). The role and significance of spiritual values in youth education. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(2), 181-185.
9. Rayimov, A. A. (2021). Social Aspects Of The Formation Of Social Activity In Youth. *Oriental Journal of Social Sciences*, 1(1), 29-32.